



UDK: 1.25.103.1

Abdulatif ABDUMALIKOV,
Farg'ona davlat universiteti professori, PhD

Farg'ona davlat universiteti professori I.Siddiqov taqrizi asosida

INSON EHTIYOJLARI VA TABIIY IMKONIYATLAR UYG'UNLIGINI SHAKLLANTIRISH SHART- SHAROITLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy taraqqiyot jarayonida tabiat-jamiyat-inson o'rtasidagi murakkab munosabatlarni muvofiqlashtirish, ularni boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi ma'naviy-axloqiy omillarning o'rni atroflicha yoritilgan. Zamonaviy sivilizatsiyaning taraqqiyotida inson faoliyatining atrof-muhitga ko'rsatayotgan ta'siri, uning oqibatlari, jamiyatning ekologik ongi va madaniyati darajasi bevosita milliy taraqqiyot ko'rsatkichi sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jamiyat, ijtimoiy determinantlar, ijtimoiy ong, ekologik axloqiy normalar, ekologik xavfsizlik, ekologik axloq.

CONDITIONS FOR FORMING HARMONY BETWEEN HUMAN NEEDS AND NATURAL CAPACITIES

Аннотация

В данной статье всесторонне раскрываются вопросы управления сложными взаимоотношениями между природой, обществом и человеком в процессе социального развития, а также роль нравственно-экологических факторов в обеспечении устойчивости окружающей среды. Анализируется влияние человеческой деятельности на природу как важный индикатор уровня экологического сознания и культуры общества.

Ключевые слова: Общество, социальные детерминанты, общественное сознание, экологические нравственные нормы, экологическая безопасность, экологическая этика.

CONDITIONS FOR FORMING HARMONY BETWEEN HUMAN NEEDS AND NATURAL CAPACITIES

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of managing the complex relationships between nature, society, and human beings in the context of social development, emphasizing the moral and ecological foundations of sustainable progress. It evaluates the impact of human activity on the environment as a direct reflection of a society's ecological awareness and cultural maturity.

Key words: Society, social determinants, social consciousness, ecological moral norms, environmental security, environmental ethics.

Kirish. Ehtiyojlari iyerarxiyasi nazariyasini ishlab chiqqan A.Maslou fikricha, ehtiyoj psixologik holat bo'lib, u insonni harakatga qo'zg'ovchi ichki kuchdir[1]. A. Maslou ehtiyojlarni quyi va yuqori ehtiyojlarga bo'ladi. Quyi ehtiyojlar – subyektning elementar fiziologik, ehtiyotkorlik va affekt ehtiyojlaridir. Yuqori ehtiyojlar esa, subyektning o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini namoyon etishga, ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojlardir. Ushbu ta'limotga ko'ra quyi tartibdagi ehtiyojlarning qondirilishi undan yuqori bo'lgan ehtiyojlarni qo'zg'atadi, harakatga soladi. Bu ehtiyojlarni yanada aniqroq tizimlashtiruvchi iyerarxiyada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Materiallar va metodlar. A.Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi postindustrial jamiyatning ishlab-chiqarish samaradorligiga qaratilgani sababli, unda ma'naviy ehtiyoj deyarli tahlil etilmagan. Ma'naviy ehtiyojlarni inson ehtiyojlarining eng oliy ko'rinishi sifatida rus iqtisodchi olimi B.I.Genkin "Inson ehtiyojlari tuzilishi" nomli tadqiqotida olib qaraydi[9].

Ma'naviy ehtiyoj moddiy ehtiyojlar bilan bog'liq holda rivojlanib keldi. Inson o'z ehtiyojlarini anglamasdan turib amalga oshira olmaydi. Zotan, faqat anglangan ehtiyojlargina inson tomonidan qondirilishga olib kelinadi. Moddiy ehtiyojlar kabi ma'naviy ehtiyojlarning o'z

mohiyati va mazmuni mavjud. "Ma'naviy ehtiyojlar – davlat, jamiyat va shaxsning barqaror turmushida moddiy ehtiyojlardan boshqa ma'naviy talablar, manfaatlar va ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishini ifodalovchi tushuncha"[11], deyiladi ma'naviyatga doir asosiy tushunchalar izohli lug'atida. Ushbu ta'rif juda aniq va lo'nda emas. Shuningdek, unda ehtiyojlarga doir qaysidir bir jihatlar unutib qoldirilgandek, nazaramizda. Chunki ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan boshqa talablarni o'zida aks ettirgani bilan, Maslou nazarda tutgan ehtiyojlar iyerarxiyasidagi barcha bosqichlarga o'z ta'sirini o'tkazadi va ularni boshqara oladi. Bundan tashqari, ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi jamiyatning madaniy o'zgarishlarini hosil qilib, uni taraqqiyotga yuzlantiradi. Chunki ma'naviy ehtiyojlarning mohiyati, avvalo, narsa va hodisalarning ichki eng muhim o'zaro bog'lanishlari, ularning qonuniy aloqadorligida ifodalanadi. Ma'naviy ehtiyojlar shu narsa va hodisalarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar, bog'lanishlarning namoyon bo'lish shaklida ko'zga tashlanadi.

Muhokama va natijalar. Ehtiyojlarning o'ziga xosligini inson hayotiy faoliyatini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqilganda to'g'ri belgilab olish mumkin. Binobarin, bunday yondashuv har qanday murakkab

tizimning strukturasi va funksiyalarining ularning muhit bilan o'zaro dialektik aloqadorligi doirasida qarab chiqilganda muhim metodologik rol o'ynaydi. Chunki «butun tizimda har qanday ko'rinishda, darajada tizim o'zining elementlari bilan aloqada bo'ladi. Tizimlilik metodi o'rganayotgan obyektga bir butun munosabatda qarash»[12] hisoblanadi.

Shuning uchun ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy, psixologik, sotsiologik adabiyotlarda ehtiyoj tushunchasining juda rang-barang tavsif va ta'riflari, amal qilish mexanizmlari to'g'risida turlicha qarashlar bayon etilgan.

Izohli lug'atda yozilishicha, ehtiyoj avvalambor kundalik hayotda «biror narsaga talab; xojat, zarurat, muhtojlik»[13] ni anglatadi. Muammoning faol tadqiqotchilaridan A.G.Zdravomislav fikricha: «Ehtiyoj, keng ma'noda, munosabatlar tizimida harakatlanuvchi har qanday subyektning muhim tarkibiy qismi, subyektning tashqi shart-sharoitlarning biron-bir majmuiga bo'lgan muhtojligi, uning asosiy belgilari hamda tashqi tabiiy shart-sharoitlarga bog'liqligidir»[14].

Sotsial ehtiyojlarni bunday tor ma'noda tushunish ularni alohida turlarga bo'linishga yo'naltiruvchi mezonlarning nomuayyanligi oqibati shakllangan bo'lib, ularni o'rganishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bunday alohidalanishning sababi shundaki, ayrim tadqiqotchilar «sotsial» atamasining sotsiologik ma'nosi, boshqalar ijtimoiy munosabatlarning alohida (sotsial) sohasiga urg'u beradilar, uchinchi bir xillar esa ularni tasniflash tamoyillaridan kelib chiqib izohlaydilar. Aslini olganda «sotsial» degan atama hozirgi zamon adabiyotlarida bir xil ma'noda qo'llanilmaydi[15]. «Sotsial ehtiyojlar» tushunchasiga kelganda, ular, birinchidan, ijtimoiy munosabatlarning iqtisodiy va siyosiy sohalari oralig'ida amal qiladi; ikkinchidan, yirik ijtimoiy qatlamlarga dahldor bo'ladi; uchinchidan, qondirish jarayoni hamkorlik usullarini gavdalantiradi; to'rtinchidan, shaxsning ijtimoiy tabiatini ifodalaydi[14].

Shunday qilib, falsafiy tadqiqotlarda sotsial ehtiyojlarni alohida guruhga ajratish faqat terminologik noaniqliklarni emas, shu bilan birga, ularning asosiy xususiyatlarini aniqlab olishni ham taqozo etadi. Biroq bu ikki masala adabiyotlarda o'zining to'la yechimini topgan emas.

Sotsial ehtiyojlarning xususiyat va belgilarini aniqlab olishning eng qulay yo'li ularning yuzaga kelish va gavdalanish jarayoni, xususan, shakllanish manbai va

mexanizmlarini tadqiq etishdan iboratdir. Gap shundaki, ehtiyojlarda xuddi narsalarga o'xshab, o'zaro ta'sir oqibatida namoyon bo'luvchi o'xshashliklar mavjud bo'lmaydi. Modomiki, ehtiyojlar murakkab obyektiv-subyektiv realliklar ekan, yuzaga kelishini empirik jihatdan qayd etmay, yuzaga kelish mexanizmlarini o'rganmay turib, ularning xususiyatlarini to'la bilib bo'lmaydi. Shunday ekan, xususan sotsial(keng ma'noda insoniy) ehtiyojlarni guruhlariga ajratish ularning rang-barang turlari, ularning o'ziga xosligi va belgilarini bilishga asoslanadi. Bu xususiyatlarning yetarli darajada o'rganilmaganligi sotsial ehtiyojlarning bir turini ikkinchisidan farqlashga imkon bermaydi emas, shu bilan birga, ularning o'ziga xos xususiyatlari muammosini ham keltirib chiqaradi. Ehtiyojlarning turlarini hisobga olmasdan, shuningdek, ularning shakllanish qonuniyatlari hamda tabiatini bir yoqlama, bir xilda, demakki, uning mavjudlik (ijtimoiy, jamoaviy, guruhiy va shaxsiy) darajalarini hisobga olmasdan turib, masalani to'g'ri hal etib bo'lmaydi.

Xulosa. Ehtiyojlarni falsafiy tahlil qilishdagi asosiy yo'nalish bu ularning yagona manba bilan bog'lanishi va shartlanishini e'tirof etishni nazarda tutadi. Adabiyotlarda sotsial ehtiyojlarning shakllanish mexanizmlari asosan insonning ijtimoiy-amaliy faoliyati bilan bog'lab tavsiflanadi. Boz ustiga, ehtiyojlarning faoliyat bilan aloqadorligi mutlaq va qonuniy qilib ko'rsatiladi. Bundan tashqari, ko'pgina tadqiqotchilar ehtiyojni shakllantirishda eng muhim omil qilib mehnat faoliyati mahsulotlarini ko'rsatadilar[16]. Shuning uchun «faoliyat-ehtiyoj» aloqasining xususiyatlari to'g'risida so'z borganda, ehtiyojlar to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy ne'matlariga bog'lab tushuntiriladi, ehtiyojlarning yuzaga kelish va rivojlanishining umumiy mexanizmi ularga aloqador predmetli sohasi bilan bog'lanadi.

Iqtisodchi olimlar A.O'lmasov, A.Vahobovlar ehtiyojning o'zi nima? degan savolga javob berar ekanlar, quyidagilarni yozadi: «Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar bu kishilarning hayot kechirishi va kamol topishi jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan turli-tuman, ya'ni barcha mahsulotlar va xizmatlarning majmuasidir»[17]. Aynan shu tahlildagi ta'rifni biz boshqa yerda uchratishimiz mumkin: «Ehtiyojlar deb, yoziladi unda, kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lish uchun, iste'mol etilishi uchun zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar yig'indisiga aytiladi»[18].

ADABIYOTLAR

1. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. 2- изд., доп.и перераб.—Москва: 2000. —С. 243.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasini rivojlanishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2017 y. 6— son. 70-modda.
3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai. —To'shkent: "Shark", 2001. -B. 114.
4. Абдукамилов Р. Авестийские тексты о государственности и праве: вопрос генезиса и эволюции структур. Ўзбекистон тарихи, 2000, 3 сон, 22 бет
5. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B.112.
6. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Chinor ENK" ekologiknashriyot kompaniyasi. 2006. –B.142
7. Sveq S. Zigmund Freyd. Ruhiiy tahlil san'ati. Jahon adabiyoti. 2000 y., mart. -B. 134.
8. Маслоу А. Г. Мотивация и личность. — СПб.: Евразия, 1999. — 478 с.// ISBN 5-80710016-6 <http://poznaisbya.com/psylib/books/masla01/txt04.htm>
9. http://www.elitarium.ru/2006/11/21/struktura_potrebnoسته_j_cheloveka.html
10. Бестужев-Лада И. В. Прогнозирование социальных потребностей. -М.: 1974. -С. 45.
11. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2009. - 325 b.
12. Rahimov I., O'tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari. - T.: O'zMU, 2005. 37-b.

13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-t. - M.: Rus tili, 1981. 459-b.
14. Здравомислов А.Г. Потребности, интересы, ценности.- М.: Политиздат, 1986. С.12
15. Философский энциклопедический словарь. - М.: ИНФРА-М.,1999. С.429-430
16. Abilov O'. O'zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi.-T.: Istiqlol, 2003.30-31-b.;
17. Turg'unboyev F. Mehnat mentaliteti va taraqqiyot dialektikasi.-T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. 25-30-b.; Falsafa asoslari. - T.: O'zbekiston, 2005. 277-278-b.
18. O'lmasov A.,Vahobov A.Iqtisodiyot nazariyasi.-T.:Sharq, 2006, 27-b.
19. Sariqov Z.,Mamatov M.Iqtisodiyot va biznes asoslari.-T.,Sharq,1997, 6-b.